

GLOBALLASHUV SHAROITIDA HARBIY JURNALISTIKA EVOLYUTSIYASI

Mohinur Anorboyeva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Jurnalistika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida harbiy jurnalistikaning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Xususan, O'zbekistonda media siyosati, ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qarorlar hamda ularning harbiy jurnalistika faoliyatiga ta'siri yoritiladi. Tadqiqotda harbiy jurnalistikaning tarixiy shakllanish bosqichlari, axborot urushi tushunchasi va uning zamonaviy kommunikatsiya tizimidagi o'rni ilmiy manbalar asosida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarning harbiy axborot tarqatish jarayoniga ta'siri, jurnalistikaning axborot xavfsizligi hamda jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy harbiy jurnalistikaning asosiy vazifalari, etik masalalari va axborot makonidagi strategik ahamiyati haqi da ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: harbiy jurnalistika, axborot urushi, ommaviy axborot vositalari, globallashuv, raqamlashtirish, axborot xavfsizligi, media siyosati, kommunikatsiya, internet, ijtimoiy tarmoqlar.

Аннотация: В данной статье анализируются тенденции развития военной журналистики в условиях глобализации и процессов цифровизации. В частности, рассматривается медиapolитика в Узбекистане, государственные решения, направленные на поддержку средств массовой информации, а также их влияние на деятельность военной журналистики. В исследовании на основе научных источников изучаются этапы исторического формирования военной журналистики, понятие информационной войны и её место в современной системе коммуникаций. Кроме того, анализируется влияние цифровых технологий, интернета и социальных сетей на процесс распространения военной информации, а также роль журналистики в обеспечении информационной безопасности и формировании общественного мнения. В статье представлены научные выводы о ключевых задачах современной военной журналистики, её этических аспектах и стратегическом значении в информационном пространстве.

Ключевые слова: военная журналистика, информационная война, средства массовой информации, глобализация, цифровизация, информационная безопасность, медиapolитика, коммуникация, интернет, социальные сети.

Annotation: This article analyzes the development trends of military journalism in the context of globalization and digitalization processes. In particular, it examines media policy in Uzbekistan, government decisions aimed at supporting mass media, and their impact on the activities of military journalism. The study also explores the historical stages of the

formation of military journalism, the concept of information warfare, and its role in the modern communication system based on scientific sources. In addition, the influence of digital technologies, the internet, and social networks on the dissemination of military information is analyzed, as well as the role of journalism in ensuring information security and shaping public opinion. The article presents scientific conclusions about the main tasks of modern military journalism, its ethical aspects, and its strategic importance in the information space.

Keywords: *military journalism, information warfare, mass media, globalization, digitalization, information security, media policy, communication, internet, social networks.*

Harbiy jurnalistika deganda, asosan harbiy-siyosiy voqealar, Qurolli Kuchlar faoliyati va mudofaa masalalarini yoritadigan soha tushuniladi. Lekin globallashuv davrida bu sohaga talay o'zgarishlar kirib keldi. Axborot bugun hech qanday chegarasiz tarqaladi. Aytish kerak, yuqoridagi qaror harbiy jurnalistikaning ham raqamli transformatsiyaga faol qo'shilayotganini yaqqol ko'rsatadi. Endi harbiy jurnalistika nafaqat bosma, balki elektron platformalar, mobil ilovalar va onlayn axborot tizimlari orqali ham ishlayapti. Axborot oqimi tezlashdi, xavfsizlik masalalari murakkablashdi, auditoriya ehtiyojlari esa kun sayin o'zgarib borayapti – bularning bari harbiy jurnalistikani yangi bosqichga olib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹ PQ-294-sonli qarori nafaqat umumiy media tizimini, balki harbiy jurnalistikaning ham zamonaviy kommunikatsiya vositalarida rivojlanishiga huquqiy va institutsional asos yaratdi. O'zbekistonda harbiy jurnalistika yo'nalishi 2019-yilda Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida ilk bor ochildi. Bu yerda harbiy mavzularni professional yoritadigan mutaxassislar tayyorlanadi. Axborot integratsiyasi va mudofaa siyosati asosiy o'rin tutadi. Ta'lim dasturlari chuqur harbiy axborot, strategiyalar va mudofaa siyosatini o'rgatadi. Bugungi kunda harbiy jurnalistika O'zbekistonda milliy xavfsizlik va axborot siyosati bilan bog'liq muhim masalalarni keng yoritmoqda. Bu jarayon mamlakatning global axborot maydonidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilayapti.

Globallashuv zamonida harbiy jurnalistika juda katta o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Ilgari urush haqidagi xabarlar faqat davlat nazorati ostida, rasmiy bayonotlar yoki tasdiqlangan manbalar orqali ommaga tarqatilar edi. Axborot oqimi sekin va cheklangan bo'lgan. Endi esa, hammasi boshqacha: tezkorlik, ochiqlik va keng qamrov - zamonaviy harbiy jurnalistikaning asosiy belgilariga aylandi. Hozirgi zamonda vaziyat butunlay o'zgardi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va uzliksiz yangiliklar oqimi tufayli urush haqidagi ma'lumotlar hozirning o'zida tarqaladi. Endi nafaqat rasmiy manbalar, balki mustaqil jurnalistlar, bloggerlar va oddiy odamlar ham voqealardan xabar berishadi. Natijada, harbiy jurnalistika tezroq, ochiqroq va markazlashtirilmagan tus oldi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyundagi PQ-294-son qarori "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". Manba: <https://lex.uz/docs/-6083381>

Internet hozir zamonaviy dunyo axborot makonining yuragiga aylandi va jamiyat, ilm, iqtisod hamda harbiy sohalarni tubdan o'zgartirdi. Uning ildizlari Sovuq urush davriga borib taqaladi. 1960-yillar oxirida AQSh Mudofaa vazirligi, xususan Pentagon, o'z harbiy tizimlarini va kommunikatsiyasini markazlashtirilmagan tarmoq orqali boshqarishga ehtiyoj sezdi. Shu sabab ARPANET (Advanced Research Projects Agency Network)² loyihasi ishga tushirildi.

1969-yilda ishga tushgan ARPANET AQShning turli shaharlaridagi ilmiy markazlar, universitetlar va harbiy obyektlarda ishlayotgan kompyuter olimlari va muhandislarga muhim axborotni tezda almashish imkonini berdi. Tarmoqning asosiy g'oyasi - markazsiz va o'zaro bog'langan tugunlar orqali axborot uzatish edi³. Natijada, tarmoqning bir qismi ishlamay qolsa ham, butun tizim ishlashda davom etardi. Bu strategiya harbiy aloqa doimiyligini ta'minlash uchun muhim bo'ldi.

Dastlab ARPANET harbiy maqsadlar uchun ishlab chiqilgan, asosan zamonaviy urushni boshqarish, strategik ma'lumotlarni tez yetkazish va xavfsiz aloqa uchun kerak edi. Lekin tez orada undan ilmiy va akademik doiralar ham foydalana boshladi. Keyinchalik butun dunyoda turli tarmoqlar paydo bo'ldi. 1990-yillarda Tim Berners-Lee yaratgan World Wide Web (WWW) bu tarmoqni oddiy odamlar uchun ham qulay va jonli axborot makoniga aylantirib yubordi. Endi esa, globallashuv davrida harbiy qarama-qarshiliklar an'anaviy jang maydonidan chiqib, axborot maydoniga ko'chdi. Zamonaviy axborot urushi ko'pincha shaxssiz va bilvosita kichadi. Masalan, kiberhujum uyushtirgan xaker nishonining shaxsini emas, uning axborot infratuzilmasini nishonga oladi. Qarama-qarshilik endi qurollar bilan emas, balki raqamli tizimlar, media platformalar va aloqa kanallari orqali bo'ladi. Axborot urushi globallashuv davrining o'ziga xos hodisasiga aylandi.

G. G. Pocheptsov aytganidek, axborot urushi harbiy qarama-qarshilikning eng intellektual shakli. Chunki bu yerda ham ta'sir qiluvchi, ham ta'sir ostida qoluvchi insonning ongidir⁴. Ustunlikni qurol emas, balki bilim, tahlil va axborotni boshqarish qobiliyati hal qiladi. G'alaba yoki mag'lubiyat ko'pincha insonning axborotni qanday qabul qilishi, qayta ishlashi va qaror qabul qilishiga bog'liq.

Rossiyalik olim V.F. Prokofyev esa axborot urushini axborot sohasidagi keng miqyosli qarama-qarshilik deb hisoblaydi. Uning fikricha, bu jarayon ochiq yoki yashirin axborot ta'siri orqali raqibga kerakli qarorni singdirish, ya'ni unga o'z irodasini qabul qildirishga qaratilgan⁵. Ya'ni, axborot urushi nafaqat texnologik, balki strategik-psixologik xususiyatga ham ega.

Tadqiqotchi A.M. Sokolova masalaga yanada kengroq qaraydi. U axborot urushini tizimlar, jarayonlar va kompyuter tarmoqlariga, shuningdek, aholi va harbiylarning ongiga

² Leiner B.M., Cerf V.G., Clark D.D., et al. A Brief History of the Internet. ACM SIGCOMM Computer Communication Review, 39, 2009. – P. 22-31. <https://doi.org/10.1145/1629607.1629613>.

³ Hafner K., Lyon M. Where Wizards Stay Up Late: The Origins of the Internet, Simon & Schuster, 1996.

⁴ Почепцов Г.Г. Информационные войны. Новый инструмент политики. М.: Алгоритм, 2015. – С. 6.

⁵ Прокофьев В.Ф. Тайное оружие информационной войны. М.: СИНТЕГ, 1999. – С. 19.

axborot nazoratini o'rnatishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar deb tushuntiradi⁶. Ya'ni, bir tomondan raqibning axborot muhitiga ta'sir ko'rsatish, ikkinchi tomondan esa o'z axborot makonini himoya qilish muhim.

Ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, axborot urushi ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi. Birinchisi - axborot tizimlari va infratuzilmalarga texnologik ta'sir, ikkinchisi - jamoatchilik va inson ongiga psixologik va kommunikativ ta'sir. Har ikkala yo'nalishda ham maxsus axborot texnologiyalari, media strategiyalari va aloqa mexanizmlari ishlatiladi.

Saudiya Arabistonidagi Shahzoda Sattam bin Abdulaziz universiteti huquq kafedrası dotsenti Dr. Safa Abdel Hai Mohamed Azzamning "History and Development of the Military Journalism from the Pharaonic Period to the Present Time" nomli ilmiy maqolasi harbiy jurnalistikaning qanday shakllanganini va aslida nimaga xizmat qilishini ochiq va aniq ko'rsatadi. U qadimgi zamonlardan boshlab bugungi kungacha bu sohaning qanday rivojlanganini tahlil qiladi. Muallif harbiy jurnalistikaning tinchlik va urush davridagi vazifalarini ham to'liq ochib beradi.

Gap shundaki, harbiy jurnalistika tinchlikda ham, urushda ham o'ziga xos, lekin bir-biriga bog'liq funksiyalarni bajaradi. Tinchlik paytida u jamiyatga qurolli kuchlarning faoliyati, harbiy islohotlar, mudofaa siyosati va xavfsizlik masalalari haqida ochiq-oydin xabar beradi. Bu orqali odamlar armiyaning asl holati, davlatning mudofaa siyosati haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Jamiyat va harbiy tizim o'rtasida axborot ko'prigi quriladi. Lekin urush boshlansa, harbiy jurnalistikaning roli murakkablashadi. U endi jang maydonidagi voqealarni tez va aniqlik bilan yoritishi, harbiy operatsiyalarning mohiyatini tushuntirishi kerak bo'ladi. Urush vaqtida mish-mishlar, yolg'on xabarlar va dushman olib boradigan ruhiy bosimlar ko'payadi. Shunaqa paytda harbiy jurnalistika axborot sohasida barqarorlikni ushlab turadi.

Bu soha faqat faktlarni uzatish bilan cheklanmaydi. Harbiy jurnalistika askarlarning jasorati va fidoyiligini yoritib, ularning ruhini ko'tarsa, jamiyatda esa birdamlik hissini kuchaytiradi. Qahramonlik haqidagi hikoyalar odamlarni ruhlantiradi, motivatsiyani oshiradi. Shu tarzda, harbiy jurnalistika psixologik ta'sir ko'rsatish vositasiga ham aylanadi. Urush paytida ba'zida matbuot strategik kommunikatsiyaga ham xizmat qiladi. Masalan, dushman yo'qotishlari yoki muvaffaqiyatsizliklari haqida xabarlar tarqatib, qarama-qarshi tomon ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish mumkin. Axborot tarqatish psixologik kurashning bir qismiga aylanadi. Biroq, shu yerda muhim savol tug'iladi: harbiy jurnalistika qanchalik mustaqil va xolis bo'la oladi?

Dr. Safaning fikricha, harbiy jurnalistika bir vaqtning o'zida bir necha vazifani bajaradi: axborot beradi, tushuntiradi, ruhiy yordam ko'rsatadi va strategik ta'sir o'tkazadi. Mana shu ko'p funksiyalilik uni mas'uliyatli va murakkab soha qilib qo'ygan⁸.

⁶ Соколова А.М. Информационные войны в условиях глобализации: социально-философский анализ: автореферат дисс. ... кандю филос. наук: 09.00.11. Красноярск, 2007. С. 9.

⁷ Françoise Daucé, Military Journalists and War Correspondents From The USSR To Russia: Subjectivity Under Fire // *The Journal of Power Institutions in Post-Soviet Societies*, Issue 16, 2014. URL: <http://journals.openedition.org/pipss/4121>.

⁸ *Journal of Positive School Psychology* 2022, Vol. 6, №3, 9774-9783
<https://journalppw.com/index.php/jpsp/article/download/5453/3610/6261>

Bugungi kunda qurolli mojarolar hayotimizning eng og'ir va shafqatsiz haqiqatlaridan biriga aylangan. Mojarolar nafaqat urush maydonida, balki odamlarning ongida ham iz qoldiradi. Shu sababli, OAVning urushlarni yoritishi shunchaki axborot yetkazish emas, bu murakkab ijtimoiy va siyosiy masala. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, ommaviy axborot vositalari mojarolarning borishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi: vaziyatni keskinlashtirishi, yoki aksincha, yumshatib, tinchlik jarayoniga xizmat qilishi mumkin. Mojaro tugagach esa, OAV ijtimoiy tiklanish va yarashuv uchun muhim ko'prik vazifasini bajaradi⁹. Harbiy jurnalistika mana shu murakkab maydonda shakllangan. U nafaqat harbiy to'qnashuvlar va terrorchilik harakatlarini, balki etnik va diniy ziddiyatlarni ham yoritadi. Bu soha faqat frontdagi janglar emas, balki mojarolarning siyosiy, ijtimoiy va insoniy tomonlarini ham qamrab oladi.

Harbiy jurnalistikaning ilk yorqin namunalari, odatda, XIX asr o'rtalaridagi Qrim urushi bilan bog'liq. Ayniqsa, "The Times" gazetasi muxbiri William Howard Russell faoliyati tarixga kirgan. U britan armiyasi bilan birga frontga chiqib, voqealarni bevosita ko'rgan va xolis yoritgan ilk urush muxbirlaridan biri. Russell o'z reportajlarida faqat g'alabalar haqida emas, balki armiyadagi muammolar - kasalliklarning keng tarqalishi, boshqaruvdagi sustlik va boshqa kamchiliklar haqida ham ochiq yozgan. Ayniqsa, Sevastopoldagi dala gospitalidagi tartibsizliklar haqidagi xabarlar Britaniya jamiyatini larzaga keltirgan. Bu materiallar o'rta sinf vakillari orasida kuchli aks-sado bergan va hukumatga nisbatan tanqidni kuchaytirgan. Natijada rasmiylar Russellni davlat obro'siga zarar yetkazishda va dushmanga axborot berishda ayblashgan. Lekin uning ochiqligi siyosiy oqibatlarga olib kelib, hatto Bosh vazirning iste'fosiga sabab bo'lgan.

Urush jurnalistikasi tarixiga qarasak, olimlar uning rivojlanishini bir nechta bosqichga bo'lib o'rganadi. Dastlab, qadim zamonlarda axborot asosan dushman haqida yolg'on gaplar tarqatish va o'z g'alabasini ko'tarib ko'rsatish uchun ishlatilgan. Keyin, XIX asr boshlaridan boshlab, urush haqidagi xabarlar gazetalarni ommalashtirdi va jamiyatning siyosiy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Boshqacha qilib aytganda, harbiy jurnalistika oddiy tarixiy xronika emas, balki ijtimoiy fikrni shakllantiradigan, siyosiy jarayonlarga ta'sir qiladigan, hatto ba'zan urushning o'z yo'nalishiga ham ta'sir ko'rsata oladigan kuchga aylangan.

Rossiyalik olim S.D. Novikov "Harbiy jurnalistika: tarixi, o'ziga xosligi va etikasi"¹⁰ asarida urush jurnalistikasi bir necha bosqichlardan o'tganini ta'kidlaydi. Qadim zamonlarda axborot ko'pincha dushman haqida yolg'on yoki bo'rttirilgan ma'lumot tarqatish, o'z g'alabasini ulug'lash uchun ishlatilgan. XIX asr boshlariga kelib esa urush haqidagi xabarlar gazeta nusxalari sonini ko'paytirib, jamoatchilikning siyosiy qarashlariga ta'sir qila boshlagan.

Oradan vaqt o'tib, axborotdan harbiy maqsadda foydalanish kuchaydi. Ayniqsa, Qrim urushi paytida senzura paydo bo'ldi, ya'ni harbiy ma'lumotlar ustidan nazorat kuchaydi.

⁹ Калоева И.Э. Особенности освещения в СМИ вооруженных конфликтов: Чеченская республика: 1994-2004 гг.: Автореф. дис. ... канд. полит.наук. СПб.: С.-Петерб. гос. ун-т, 2004. 21 с.

¹⁰ Новиков С.Д. Военная журналистика: история, специфика и этика, научная статья. Prince Sattam bin Abdulaziz University, Королевство Саудовская Аравия.

1860-1914-yillar oralig‘i ko‘pincha harbiy jurnalistikaning “oltin davri” deb ataladi. Bu davrda jurnalistika mustaqil soha sifatida shakllandi, suratga olish va telegraf kabi yangi texnologiyalar frontdan tezkor xabar uzatish imkonini berdi. Birinchi jahon urushi vaqtida targ‘ibot va senzura yanada kuchaydi, axborotni davlat to‘liq nazorat qildi. Vetnam urushida esa vaziyat butunlay boshqacha bo‘ldi: urush voqealari va dahshatlari haqida kundalik xabarlar berildi, bu esa jamoatchilik fikriga kuchli ta‘sir o‘tkazdi. Yillar o‘tib, sun‘iy yo‘ldosh texnologiyalari tufayli voqealarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirga uzatish imkoni paydo bo‘ldi. Fors ko‘rfazi urushida axborot harbiy harakatlarning ajralmas qismiga aylanganini ko‘rdik.

So‘nggi yillarda harbiy jurnalistlar oldida yangi vazifalar paydo bo‘ldi. Endi ular faqat voqealarni yoritibgina qolmay, balki kasbiy axloq, qonun va hokimiyat bilan munosabatlarni zamon talabiga moslashtirishi kerak. Urush sharoitida xolislik, xavfsizlik va axborot erkinligi o‘rtasida muvozanat topish tobora qiyinlashmoqda. 2020-yildagi Tog‘li Qorabog‘ mojarosi misol bo‘ldi. Turli jurnalistlar voqealarni har xil yoritdi: ba‘zilar mojaroning bir tomonini yoqlab yozgan bo‘lsa, boshqalari qarama-qarshi fikr bildirdi¹¹. Yana ayrim nashrlar esa nisbatan mustaqil kuzatuvchi sifatida mojaroni tahlil qilishga harakat qildi.

Bularning barchasi shuni ko‘rsatadiki, har bir jurnalist xolislikka intilsa ham, u baribir ma‘lum bir muhit va manbaga tayangan holda ishlaydi. Qurolli mojarolarni yoritishda eng muhim mezon – bu berilayotgan ma‘lumotning ishonchliligi va to‘liqligi. OAVning mojaroni hal etishdagi roli esa jurnalistlarning kasbiy erkinligi va zarur axborotga erkin kirish imkoniyatiga bog‘liq.

Globallashuv davrida harbiy jurnalistika ham shakl va mazmun jihatidan tubdan o‘zgarib bormoqda. Oldin u asosan front ortidagi voqealarni yoritish bilan cheklangan bo‘lsa, hozir murakkab axborot makonida harakat qiladigan, strategik ahamiyatga ega ijtimoiy institutga aylandi. Bu jarayon harbiy jurnalistikaning an‘anaviy reportyorlikdan axborot xavfsizligi va kommunikativ ta‘sir mexanizmlarini tushunish bosqichigacha o‘sib chiqqanini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy qarama-qarshiliklarning asosiy kurash maydoni endi hudud emas, balki axborot maydoni hisoblanadi. Shu bois, harbiy jurnalistika endi voqelikni shunchaki tasvirlamaydi, balki axborot oqimining mazmuni, yo‘nalishi va ta‘sir kuchini ham tahlil qiladi. Jurnalist zimmasiga mas‘uliyat oshdi: u xabarni tez yetkazibgina qolmay, uning haqqoniyligi, ijtimoiy oqibatlari va manipulyativ tomonlarini ham hisobga olishi zarur.

Axborot texnologiyalari taraqqiyoti harbiy jurnalistika uslubini ham o‘zgartirdi. Endi raqamli platformalar, onlayn translyatsiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va multimedia vositalari tufayli axborot tarqalishi ancha tezlashdi. Bugun harbiy jurnalist nafaqat matn muallifi, balki vizual va audiovizual kontent yaratuvchisi, tahlilchi va kommunikator hamdir. Bu o‘zgarishlar sohaning kasbiy va etik standartlarini takomillashtirish zaruratini kuchaytirib yubordi. Axborot urushi davrida harbiy jurnalistika aslida milliy axborot xavfsizligining ajralmas qismiga aylanib boryapti.

¹¹ История отечественной военной журналистики (1992-2020): хрестоматия / Под ред. А.В. Козлова, С.С. Колесникова; авт.-сост. А.В. Козлов, А.В. Лебедев, А.Ш. Салихов, Т.М. Сыртланов. – М.: Белый ветер, 2021. 130 с.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-294-son qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-6083381>.
2. Leiner B.M., Cerf V.G., Clark D.D., et al. A Brief History of the Internet. ACM SIGCOMM Computer Communication Review, 39, 2009. – P. 22-31. <https://doi.org/10.1145/1629607.1629613>.
3. Hafner K., Lyon M. Where Wizards Stay Up Late: The Origins of the Internet, Simon & Schuster, 1996.
4. Почепцов Г.Г. Информационные войны. Новый инструмент политики. М.: Алгоритм, 2015. – С. 6.
5. Прокофьев В.Ф. Тайное оружие информацонной войны. – М.: СИНТЕГ, 1999. – С. 19.
6. Соколова А.М. Информационные войны в условиях глобализации: социально-философский анализ: автореферат дисс. ... кандю филос. наук: 09.00.11. Красноярск, 2007.С. 9.
7. Françoise Daucé, Military Journalists and War Correspondents From The USSR To Russia: Subjectivity Under Fire // The Journal of Power Institutions in Post-Soviet Societies, Issue 16, 2014. URL: <http://journals.openedition.org/pipss/4121>.
8. Journal of Positive School Psychology 2022, Vol. 6, №3, 9774-9783 <https://journalppw.com/index.php/jpsp/article/download/5453/3610/6261>
9. Калоева И.Э. Особенности освещения в СМИ вооруженных конфликтов: Чеченская республика: 1994-2004 гг.: Автореф. дис. ... канд. полит.наук. СПб.: С.-Петербург. гос. ун-т, 2004. 21 с.
10. Новиков С.Д. Военная журналистика: история, специфика и этика, научная статья. Prince Sattam bin Abdulaziz University, Королевство Саудовская Аравия.
11. История отечественной военной журналистики (1992-2020): хрестоматия / Под ред.А.В. Козлова, С.С. Колесникова; авт.-сост. А.В. Козлов, А.В. Лебедев, А.Ш. Салихов, Т.М. Сыртланов. – М.: Белый ветер, 2021.